ISSN 2010-6246

ILM SARCHASHMALARI

ILMIY-NAZARIY, METODIK JURNAL

Science Top Sources

Scientific-theoretical, methodical journal

2025.7

www.ilmsarchashmalari.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

7-son (iyul 2025)

Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan

Urganch – 2025

(3). Mahmudov N. O‘zbek tilidagi ta’lim terminologiyasi. Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2018.
www.ziyonet.uz
www.dissnatlib.uz
www.natlib.uz
www.uza.uz
www.edu.uz

Mamarasulov Umidjon (O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi; ORCID: 0009-0000-8735-9718; E-Mail: mamarasulov_u@nuu.uz)

BADIIY TASVIR VA IFODA VOSITALARINING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Erich Mariya Remarkning “Der Weg zurück” (“Ortga yo‘l”) romani misolida metafora, frazeologik birikma va kinoya kabi stilistik vositalarning nemis, rus va o‘zbek tillaridagi tarjimalari tahlil qilingan. Lingvistik va madaniy jihatlar o‘rganilib, tarjima jarayonidagi moslashuvlar va madaniy konnotatsiyalarni yetkazish muammolari yoritilgan. Natijalar stilistik tarjimada til va madaniyat omillarini hisobga olish muhimligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *lingvokultura, stilistik vositalar, badiiy tarjima, metafora, frazeologizm, o‘zbek tili, nemis tili, rus tili, tarjima nazariyasi.*

Мамарасулов Умиджон (независимый исследователь Национального университета Узбекистана ORCID: 0009-0000-8735-9718; E-Mail: mamarasulov_u@nuu.uz)

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНО-ВЫРАЗИТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ

Аннотация. *В статье анализируются переводы стилистических средств (метафоры, фразеологизмы, ирония) на примере романа Эриха Марии Ремарка «Der Weg zurück» («На обратном пути») и его переводов на русский и узбекский языки. Рассматриваются лингвистические и культурные аспекты, выявлены трудности передачи культурных коннотаций при переводе. Подчеркивается необходимость учета как языковых, так и культурно-контекстуальных факторов.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, стилистические приемы, художественный перевод, стилистические фигуры, метафора, фразеологизмы, узбекский язык, немецкий язык, русский язык, теория перевода.*

Mamarasulov Umidjon (Independent researcher, National University of Uzbekistan; ORCID: 0009-0000-8735-9718; E-Mail: mamarasulov_u@nuu.uz)

LINGUOCULTURAL ASPECTS OF STYLISTIC AND EXPRESSIVE MEANS

Annotation. *This article analyzes the translations of stylistic devices (metaphors, idiomatic expressions, irony) using examples from Erich Maria Remarque's novel Der Weg zurück ("The Road Back") and its Uzbek and Russian translations. Linguistic and cultural dimensions are explored, highlighting difficulties in conveying cultural connotations during translation. The study emphasizes the importance of considering both linguistic and cultural-contextual factors.*

Keywords: *linguoculture, stylistic devices, literary translation, stylistic figures, metaphor, idioms, Uzbek, German, Russian, translation theory.*

Kirish (Introduction). Badiiy adabiyotdagi tasviriy-ifodaviy vositalar – metafora, tashbeh, kinoya, mubolag‘a, frazeologik birikmalar va boshqa stilistik figuralar – nafaqat muallifning uslubini yoritadi, balki xalqning madaniy va ma’naviy dunyoqarashini ham aks ettiradi [12;63-b.]. Har bir til o‘ziga xos obrazli ifoda vositalariga ega bo‘lib, ular orqali o‘sha tilga xos bo‘lgan lingvokulturaviy ma’no yuki yuzaga chiqadi. Masalan, metaforalarda abstrakt tushunchalar, ko‘pincha, o‘sha madaniyatga xos aniq obrazlar orqali ifodalanadi [12;64-b.]. Demak, badiiy matndagi stilistik vosita muayyan tildagi milliy madaniy konnotatsiya va kognitiv andozalarni o‘zida mujassam etadi.

Stilistik vositalarni boshqa tilga tarjima qilish murakkab jarayon bo‘lib, bunda tarjimon til va madaniyat oralig‘ida vositachilik qiladi. Bir tildagi obraz yoki ibora aynan tarjima qilinsa, boshqa til o‘quvchisi uchun begona yoki tushunarsiz bo‘lib qolishi mumkin. Shu sababli tarjimonda ba’zan badiiy ifoda vositalarini adekvat va ekvivalent tarzda qayta yaratish talab etiladi [5;143-b.]. G‘.Salomov ta’kidlaganidek, yaxshi tarjimon asardagi milliy xususiyatlar va frazeologizmlarni tarjimada maksimal darajada aks ettirishga intilishi lozim. Zero, lingvokulturologiya sohasidagi tadqiqotlar ko‘rsatmoqdaki, til va madaniyat uzviy bog‘liq. Har bir xalqning tilda qo‘llaydigan badiiy timsollari o‘sha xalqning tarixi, urf-odatlari va dunyoqarashi bilan chambarchas aloqador.

Mazkur ishda badiiy tasvir va ifoda vositalarining tarjima jarayonidagi ahamiyati va o‘ziga xosliklari o‘rganiladi. Tadqiqot doirasida nemis adibi Erich Maria Remarkning Birinchi jahon urushi yakunlari haqidagi “Der Weg zurück” romani [1;69–147-b.] tanlab olindi va uning o‘zbek tilidagi tarjimasi [3;57–124-b.] hamda rus tilidagi tarjimasi (“На обратном пути”. 2021) [2;60–136-b.] bilan qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu asar misolida turli tildagi stilistik birliklarni qiyoslash bir qator sabablarga ko‘ra maqsadga muvofiq, birinchidan, Remark uslubiga xos bo‘lgan kuchli badiiy obrazlar va ifoda vositalari mavjud, ikkinchidan, roman nemis jamiyati va madaniyatiga oid realliklarni aks ettiradi, ularni o‘zbek va rus tillariga tarjima qilish jarayonida yuzaga kelgan qiyinchilik va yechimlar lingvokulturologik nuqtayi nazardan qimmatli ma’lumot beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Badiiy tarjimada uslubiy vositalarning saqlanishi va o‘zgarishi xalqaro tarjimashunoslikda keng o‘rganilgan. Nemis olimi Verner Koller ekvivalentlik nazariyasi va badiiy uslubni tarjimada qayta yaratish masalalarini tadqiq qilgan. Rus tadqiqotchisi Yuriy Lotman badiiy matnlarning semiotik jihatlariga, Andrey Fyodorov esa uslubiy o‘zgarishlar va ularni hal qilish usullariga e’tibor qaratgan. Ingliz tarjimashunosi Lourens Venuti tarjimonning uslubiy tanlovlari tarjimaning originalga yaqinligini belgilashini ta’kidlagan. So‘nggi tadqiqotlarda Mamadjanova Maftunaxon epitetlarni, Azimova Muxayyo giperbola, meyozis va litotani, Turaxonova Xosiyatxon esa Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” tarjimasidagi lingvopragmatik xususiyatlarni tadqiq qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu izlanishda qiyosiy-taqqoslama lingvistik tahlil usuli qo‘llandi. Avvalo, Remarkning “Der Weg zurück” asaridan stilistik jihatdan e’tiborga molik parchalar va iboralar tanlab olindi. Keyin ular muallifning rus tilidagi tarjimasi va o‘zbek tilidagi tarjimasi matnlari bilan qadam-baqadam solishtirildi. Tanlangan misollar qatoriga metafora, metonimiya, mubolag‘a, frazeologik iboralar, stilistik takror va boshqa bir qator ifoda vositalari kiritildi. Har bir misol uchun nemischa original matn, uning ruscha va o‘zbekcha tarjimalari o‘zaro taqqoslanib, morfologik, sintaktik va semantik o‘zgarishlar tahlil qilindi.

Tahlil jarayonida tarjima nazariyasining asosiy tushunchalari va tamoyillariga tayanildi. Jumladan, L.S.Barkhudarovning tarjimada ekvivalentlik darajalari haqidagi qarashlari va tarjima transformatsiyalari nazariyasi qo‘llanildi [4]. Shuningdek, G‘.Salomov [5], I.G‘afurov, N.Qambarov [6] kabi olimlarning o‘zbek tarjimashunosligidagi ishlanmalari ham metodologik asos sifatida qabul qilindi. Masalan, G‘.Salomov asarlarida tarjimada shakl va mazmun yaxlitligini saqlash, frazeologizmlarni tarjima qilish yo‘llari haqida berilgan tamoyillar mazkur tadqiqotda stilistik vositalarni tarjimada qayta yaratish masalasini yoritishda qo‘l keldi.

Metodologiyaning muhim qismi sifatida lingvokulturologik yondashuv qo‘llanildi. Bu yondashuvda har bir stilistik birlikning asl til madaniyatidagi o‘rni va ma’nosi tahlil qilinib, til madaniyatidagi ekvivalenti qidirildi. Masalan, metaforik ibora nemis tilida qanday madaniy konnotatsiya bersa, uning o‘zbek tilida shunga yaqin yoki funksional ekvivalentini topish jarayoni kuzatildi. Bunda tarjimonning qarori, ya’ni aynan tarjimada qanday strategiya tanlagani ham tahlil qilindi.

Tadqiqot materiali sifatida foydalanilgan matnlar: Remark asarining asl nemischa nashri [1;69-147-b.], uning ruscha tarjimasi [2;60–136-b.] va o‘zbekcha tarjimasi [3;57–124-b.]. Zarur bo‘lgan hollarda, boshqa manbalardagi nazariy ma’lumotlarga murojaat qilindi. Xususan, G.V.Panning “Deutsche Stilistik” (2010) darsligi va N.M.Naerning nemis tili stilistikasi bo‘yicha asarlaridan nemis tilidagi stilistik vositalarning turlari va xususiyatlariga oid ma’lumotlar olindi. Shuningdek, Barkhudarov (1975) va S.Florin kabi tarjimashunoslarning madaniy realiyalarni tarjima qilish va ekvivalentlik nazariyasiga oid fikrlari tahliliy asbob sifatida xizmat qildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tahlil shuni ko‘rsatdiki, nemis, rus va o‘zbek tillarida badiiy ifoda vositalaridan foydalanish sezilarli farqlarga ega. Quyida ayrim topilmalar misollar bilan keltiriladi.

Nemis tilida uchraydigan barqaror iboralar va metaforalar, ko‘pincha, so‘zma-so‘z tarjima qilinganda ma’no yo‘qotadi yoki g‘alati eshitiladi. Masalan, Remark asarida qahramon tinch uy sharoitini tasvirlab: “Es ist so schön, wie es nur sein kann” [1;78-b.] deb yozadi. Bu ibora rus tiliga “Лучше и быть не может” [2;69-b.] tarzida, o‘zbek tiliga esa “Odamga baxt uchun yana ne kerak!” tarzida tarjima qilingan [3;64-b.]. Ruscha tarjima asl ibora ma’nosini to’g‘ridan to‘g‘ri aks ettirsa, o‘zbekcha tarjimada milliy ohang seziladi. Gap ritorik savol shaklida, maqolga xos ohangda ifodalangan. Bu o‘rinda o‘zbek tarjimoni asl iborani o‘zbek o‘quvchisi dunyoqarashiga yaqinroq tarzda qayta yaratgan. Natijada asl matndagi hissiyot – “bundan ortiq go‘zallik yo‘q” degan ma’no – o‘zbek o‘quvchisi uchun “baxt uchun boshqasi kerak emas” degan tushunchada ta’sirli yetkazilgan.

Bundan tashqari, asarda urush yillaridagi Germaniya hayotiga oid madaniy realiyalar ham uchraydi, masalan, Kartoffelpuffer – kartoshkali quymoq [1;128-b.], Eichelkaffee – eman yong‘og‘idan qahva [1;78-b.] yoki Kanarienvogel – kanareyka qushi [1;78-b.]. Ruscha tarjimada Kartoffelpuffer uchun “картофельные оладьи” [2;68-b.], o‘zbekcha tarjimada esa “kartoshka quymoq” [3;64-b.] atamasi ishlatilgan. Eichelkaffee ruscha tarjimada “желудевый кофе” [2;68-b.] deb bevosita tarjima qilingan, o‘zbekcha tarjimada esa birmuncha erkin “cho‘chqayong‘oq qahvasi” [3;64-b.] deb berilgan. E’tibor qilinsa, o‘zbek tilida “eman yong‘og‘i” tushunchasi uncha keng tarqalmagani tufayli, tarjimon cho‘chqayong‘oq iborasini tanlagan, bu esa o‘zbek o‘quvchisi uchun mazmunan tushunarliroq. Bunday moslashuv lingvokulturaviy tafovutni bartaraf etishga xizmat qiladi. Har uchala tilda mazkur realiya ifoda etilsa-da, o‘zbek tilida konnotativ ma’no o‘quvchiga aniqroq yetadi.

Tarjima jarayonida ba’zan atoqli otlarni o‘zgartirish ham kuzatildi. Remark asarida askarlardan birining iti Wolf deb ataladi [1;78-b.]. Rus tarjimoni bu nomni o‘zgartirmasdan Вольф [2;68-b.] tarzida qoldirgan bo‘lsa, o‘zbek tarjimoni it nomini “Bo‘ribosar” deb bergan [3;106-b.]. “Bo‘ribosar” so‘zi o‘zbek tilida bo‘ri ovlovchi it ma’nosini anglatadi [15;417-b.], asl nomdagi ma’noni ham, itga xos xususiyatni ham o‘zida mujassam etadi. Bu yerda tarjimon nomni transliteratsiya qilish o‘rniga, uning ma’nosini aks ettiruvchi ekvivalent nom tanlashga intilgan. Natijada o‘zbek o‘quvchisi uchun bu personaj nomi begona ism emas, balki ma’noli bir obraz sifatida qabul qilinadi. Bunday o‘zgarish, albatta, tarjima erkinligining namunasi bo‘lishi bilan birga madaniy va uslubiy adekvatlikni oshirishga xizmat qilgan.

Nemis tili so‘z yasashda qo‘shma so‘zlarga boy. Masalan, asarda “Achselklappenabreißer” [1;74-b.] kabi murakkab so‘z uchraydi. So‘zma-so‘z “pogon yulib oluvchi” – kontekstda harbiy unvonlarni yulib tashlaydigan kimsalar, ya’ni harbiy unvonlardan voz kechgan isyonchilardir. Ruscha tarjimada bu murakkab tushuncha “срыватели погон” [2;65-b.] deb ikki so‘z orqali berilgan, o‘zbekchada esa “pogonlarini yulib tashlaydiganlar” [3;61-b.] kabi ibora bilan ifodalangan. Demak, nemis tilidagi murakkab yasalma so‘zlarni tarjima qilishda rus va o‘zbek tillari grammatik imkoniyatlaridan kelib chiqib, analitik usuldan foydalangan. Yana bir misol, nemis tilida “zwanzigste I.D., Verdun [1;74-b.] kabi qisqartma va harbiy terminlar bor. O‘zbekcha tarjimada bu joyda “Yigirmanchi piyoda askarlar diviziyasi. Verden” [3;62-b.] tarzida to‘liqroq tushuntirilgan. Bu holat ham morfologik va terminologik moslashuvni ko‘rsatadi. Tarjimon nemis tilidagi qisqa, tarkibiy ifodani o‘zbekcha ravon jumlaga aylantirgan.

Remark matnida jangchi askarlarning og‘zaki nutqiga xos qo‘pol va hissiy ifodalar uchraydi. Masalan, ular bir guruh qochoq askarlarni masxara qilib, “ihr Säuglinge!” ma’nosida, ya’ni tajribasiz go‘daklar [1;74-b.] deya haqoratlashadi. Ruscha tarjima buni “недоноски” [2;65-b.] degan so‘z bilan bergan, o‘zbekchada esa tarjimon rang-barang xalqona ibora ishlatib, “jibla-jibonlar” deb tarjima qilgan [3;62-b.]. “Jibla-jibon” so‘zi o‘zbek tilida kichkina, ojiz odamga nisbatan aytiladigan uyaltiruvchi ifoda bo‘lib, so‘z o‘yiniga ega. Bu tarjimada rus tilidagi yechimga qaraganda kuchliroq ekspressiv ta’sir qiladi, chunki takrorlangan ohang va ohorli tovush mosligi bilan haqoratning hissiy bo‘yoqlari kuchaygan. Bunday holda tarjimon matndagi ekspressiv ruhni saqlash uchun aynan lug‘aviy ekvivalentdan ko‘ra maqsad til imkoniyatidagi funktsional ekvivalentni izlaganini ko‘ramiz. Natijada asl matndagi hissiy ekspressiya o‘zbekcha tarjimada boshqacha til vositalari ohang va xalq orasida keng tarqalgan ibora yordamida yetarli darajada ifodalangan.

Tahlil davomida aniqlangan stilistik vositalarni tarjima qilishdagi asosiy qiyinchiliklar quyidagilardan iborat.

Ba’zi hollarda maqsad tilida asl matnadagi obrazga to‘liq mos keladigan ekvivalent yo‘q. Masalan, nemis tilidagi Kartoffelpuffer uchun o‘zbek tilida tayyor atama yo‘q edi. Tarjimon deskriptiv usul bilan “kartoshka quymoq” deb atagan. Xuddi shunday Säugling haqorat ma’nosida o‘zbek tilida ishlatilmagani bois “jibla-jibon” kabi yangicha ifoda topilgan. Bu holatlar tarjimada leksik ekvivalentlikka erishish qanchalik og‘ir kechishini ko‘rsatadi.

Stilistik vositalar, ko‘pincha, madaniy asosga ega bo‘ladi, masalan, cho‘chqayong‘oq qahvasi Germaniyada urush paytida haqiqiy qahva o‘rnida ichilgan ichimlik hisoblanadi. Tarjima paytida bu madaniy ishora yo‘qolib ketmasligi uchun tarjimon qo‘shimcha tushuntirish, ekvivalent realiya yoki izohdan foydalanishga majbur bo‘ladi. Bizning misollarda rus tarjimon “сахарозаменитель” [2;68-b.] kabi tushunchalarni qo‘shimcha qilgan bo‘lsa, o‘zbek tarjimonda bunday izohlarni kamroq ko‘ramiz. Ehtimol, tarjimon soddaroq usul tanlab, ba’zi detallarni tushirib qoldirgan yoki umumlashma bilan bergan.

Nemis tili grammatik imkoniyatlari rus va o‘zbek tillaridan farq qiladi. Tarjima jarayonida jumlalarni qayta tuzish, murakkab gaplarni bo‘laklash yoki bir nechta oddiy gaplarga ajratish talab qilindi. Masalan, nemis tilidagi uzoq murakkab gaplar rus va o‘zbek tillarida bo‘linib, mantiqan ikki-uch gapga aylantirildi.

Bu sintaktik o‘zgartirishlar tarjima mazmunini saqlash bilan birga, maqsad tilida ravonlikni ta’minlash uchun qilingan.

Asl matnda harbiylar nutqiga xos qo‘pollik, hazil aralash ohang, rasmiy-uslubiy ohang kabi turli registrlar mavjud. Tarjimada ushbu ohanglarni saqlash katta mahorat talab etdi. Masalan, askarlarning haqoratomuz gaplarini tarjima qilishda o‘zbek tilida ham shunga yaqin darajadagi hissiy ta’sirga ega so‘zlarni topish kerak bo‘ldi. Rasmiy xabar ohangidagi gaplarda rus tilida odatiy yurishma iboralar qo‘llanib, o‘zbekchada esa qisqa va aniq ifoda berildi. Uslubiy muvozanatni saqlash tarjimon uchun doimiy masala bo‘lib, u matnning turli qismlarida turlicha hal etilgan.

Yuqoridagi qiyinchiliklarning barchasi tarjimonlardan ijodiy yondashuvni talab qiladi. Tarjimashunoslik nazariyasida ta’kidlanishicha, tarjimon asl matnni o‘z tilida qayta yaratish bilan shug‘ullanadi. U asl matn mazmunini, g‘oyasini, hissiyotini o‘z tilidagi vositalar bilan yangidan konstruksiya qiladi. Bizning kuzatishlarimiz ham shuni tasdiqlaydiki, ayniqsa, badiiy tarjimada tarjimon ijodkor sifatida harakat qiladi. U ba’zan dramaturg, ba’zan shoir, ba’zan, madaniyatshunos kabi qarorlar qabul qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Olib borilgan tadqiqot natijalari bir qancha xulosalarni chiqarishga imkon berdi. Xususan, badiiy tasvir va ifoda vositalari har bir tilda o‘sha xalqning madaniyati va dunyoqarashini aks ettiradi. Shu bois ularni tarjima qilganda faqat lug‘aviy ma’noni emas, balki mazkur vositaning madaniy qiymatini ham hisobga olish kerak. Tadqiqotda ko‘rilgan misollar o‘zbek, rus va nemis tillarida turlicha shakl va ma’noga ega bo‘lib, ularning tarjimasida oddiy ekvivalent almashtirish, ko‘pincha, yetarli bo‘lmadi.

Tarjima – ijodiy qayta yaratish jarayoni. Tarjimon asl matndagi stilistik vositalarni tilga ko‘chirar ekan, ko‘pincha, ularni qayta yaratadi. Bu jarayon davomida u transformatsion o‘zgarishlar qilishga majbur bo‘ladi, masalan, murakkab so‘zni sodda qilib berish, iborani boshqacha konstruksiyaga aylantirish, bir ma-daniy realiyani boshqasiga almashtirish kabi [6;108-b.]. Maqolada keltirilgan “Wolf – Bo‘ribosar”, “Säug-linge – jibla-jibonlar” kabi o‘zgartirishlar tarjimonning ijodkorlik yondashuvi natijasi bo‘lib, o‘quvchida originalga yaqin ta’sir uyg‘otishga qaratilgan.

Stilistik birliklarni tarjima qilishda lingvokulturologik tahlil katta yordam beradi. Bu tahlil vositasida tarjimon asl birlikning qaysi madaniy qavatga tegishli ekanini anglab oladi va unga maqsad til kulturasi ichidan mos nuqtani qidiradi [12;63–67-b.]. Tadqiqot davomida shu narsa aniq bo‘ldiki, masalan, nemischa ibora askarlar hayotiga oid jargon bo‘lsa, o‘zbek tilida ham shunga yaqin jargon yoki xalqona iborani topish kerak. Bu usul tarjimani jonlantiradi va tabiiylashtiradi.

Tarjima jarayonida to‘la ekvivalentlikka erishish ideal maqsad bo‘lsa-da, amaliyotda ko‘pincha nisbiy ekvivalentlik bilan cheklaniladi. Tarjimon ba’zi jihatlarni qurbon qilish evaziga boshqa jihatlarni saqlab qoladi. Bizning holatda ruscha tarjimada, iloji boricha, mazmun va obrazlar saqlangan, o‘zbekchada esa tushunarlilik va ta’sir kuchi maqsadida ba’zi tafsilotlar tekislangan yoki o‘zgartirilgan. Bu ekvivalentlikning turli darajada namoyon bo‘lishidir. Muhimi, har ikki tarjima ham o‘z maqsad auditoriyasi uchun qabul qilinarli va samarali bo‘lib chiqdi, ya’ni funksional ekvivalentlikka erishildi.

Ushbu tadqiqot natijalari stilistika va tarjimashunoslik sohasida bir qator amaliy tavsiyalarni ilgari surishga imkon beradi. Jumladan, stilistik vositalarni aniqlash va tahlil qilish bo‘yicha ikki tilli joriy etmalar ro‘yxati tuzish, tarjima jarayonida madaniy realiyalar uchun izoh va lug‘aviy qo‘shimchalardan foydalanish amaliyotini yo‘lga qo‘yish, tarjima asarlarini tahrir qilishda stilistik silliqlik va tabiiylikka alohida e’tibor berish, kerak bo‘lsa, originalga qattiq bog‘lanib qolmasdan, maqsad til stilistikasini ishlatishga ruxsat berish.

Xulosa qilib aytganda, badiiy tasvir va ifoda vositalarining lingvokulturologik aspektlarini o‘rganish nafaqat tarjimon uchun, balki, umuman, tilshunoslik va adabiyotshunoslik uchun ham foydalidir. Zero, bunda biz tilning chuqur qatlamlarini tahlil qilamiz. Turli tillar va madaniyatlar misolida bunday tadqiq qilish dunyo tillarining rang-barangligi va tarjimaning mo‘jizakor ijod ekanini yana bir karra tasdiqlaydi. Tarjima – millatlararo muloqot ko‘prigi, stilistik vositalar esa o‘sha ko‘prikdagi bezak va ustunlardir. Ularni puxta va did bilan “qurish” har bir tarjimonning vazifasi, har bir tadqiqotchi esa bu jarayonga o‘z hissasini qo‘shishda davom etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Remark, E.M. Der Weg zurück. Berlin: Im Propyläen-Verlag, 1931, 289 s.
(2) Ремарк Е.М. На обратном пути (rus tiliga tarjima E.Shukshina). Москва, AST, 2021, 352 с.
(3). Remark, E.M. Ortga yo‘l (o‘zbek tiliga tarjima S Saidmurodov). Toshkent: “Factor books”, 2022, 320-bet.
(4). Barkhudarov, L.S. Language and Translation. Москва, “Международные отношения”, 1975.

(5). Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1978.
(6). G‘afurov I., Mo‘minov, O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. Toshkent, “Tafakkur bo‘stoni”, 2012, 216-bet.
(7). Pan, G.V. Deutsche Stilistik. Nemis tili stilistikasi. Toshkent, 2010, 280-bet.
(8). Naer, N.M. Stilistik der deutschen Sprache (manba: ilmiy maqolalar to‘plami, 2000-yillar).
(9). Sandig, B. Stilistik der deutschen Sprache. Berlin–New York, Walter de Gruyter, 1986.
(10). Sandig, B. Probleme einer linguistischen Stilistik. Linguistik und Didaktik, Heft 3, 1970, s. 177–194.
(11). Sushko, N.I. Ekspressiv-stilistik ma’nolarni tarjimada yetkazish muammolari. Ilmiy to‘plam maqolasi, Minsk, 2018.
(12). Toshmatova, S. Badiiy tasviriy vositalarning lingvokulturaviy tadqiqi. Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika jurnali, 2024, № 2 (6), 63–67-betlar.
(13). Комиссаров В.Н. Слово о переводе. Москва, “Международные отношения”, 1973.
(14). Nida, E. Toward a Science of Translating. Leiden, E.J.Brill, 1964.
(15). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T., “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 680-bet.

Atajonova Maloxat Ilxamovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti katta o‘qituvchisi, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi; malohatatajonova@gmail.com)

MAYL VA OHANG UYG‘UNLIGIDA KOMMUNIKATIV MAQSADINING IFODASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Charlotte Brontëning “Jane Eyre”asari misollarida gapning maqsadga ko‘ra turlarida mayl va ohang uyg‘unligi tahlil qilinadi. Intonatsiya nutqning ohangli, musiqiy qismi sifatida gapning ma’nosi, so‘zlovchining niyati va emotsional holatini ifodalashda muhim vosita ekanligi ko‘rsatiladi. Maqolada darak, so‘roq, buyruq va his-hayajon gaplarining intonatsion xususiyatlari, shuningdek, ingliz va o‘zbek tillaridagi intonatsion farqlar va o‘xshashliklar solishtiriladi. Intonatsiyaning lingvistik va kommunikativ funksiyalari, shuningdek, til o‘rganish va tarjimada qo‘llanilishi muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *intonatsiya, kommunikativ gap turi, emotsional holat, Charlotte Brontë, Jane Eyre, lingvistik tahlil, nutq ohangi, til o‘rganish, tarjima.*

Атаджанова Малохат Ильхамовна (старший преподаватель, государственный университет имени Abu Rayhan Beruniy; malohatatajonova@gmail.com)

ВЫРАЖЕНИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ ЦЕЛИ В СОЧЕТАНИИ МОДАЛЬНОСТИ И ИНТОНАЦИИ

Аннотация. *В данной статье на примерах произведения Шарлотты Бронте «Джейн Эйр» анализируется согласование наклона и интонации в различных типах предложений в зависимости от их коммуникативной цели. Показано, что интонация, являясь мелодической и музыкальной частью речи, является важным средством выражения смысла предложения, намерения говорящего и его эмоционального состояния. В статье сопоставляются интонационные особенности повествовательных, вопросительных, побудительных и восклицательных предложений, а также сравниваются интонационные различия и сходства в английском и узбекском языках. Обсуждаются лингвистические и коммуникативные функции интонации, а также её применение в изучении языка и переводе.*

Ключевые слова: *интонация, коммуникативный тип предложения, эмоциональное состояние, Шарлотта Бронте, Джейн Эйр, лингвистический анализ, тон речи, изучение языка, перевод.*

Atajonova Malokhat Ilkhamovna (senior teacher Urgench State university named after Abu Rayhan Beruni; malohatatajonova@gmail.com)

THE EXPRESSION OF THE COMMUNICATIVE PURPOSE IN THE COMBINATION OF MODALITY AND INTONATION

Annotation*. This article analyzes the combination of mood and intonation in different types of sentences according to their communicative purpose, using examples from Jane Eyre by Charlotte Brontë. It is demonstrated that intonation, as the melodic and musical component of speech, is an important means of expressing the meaning of a sentence, the speaker’s intention, and their emotional state. The article compares the intonational features of declarative, interrogative, imperative, and exclamatory sentences, as well as the intonational differences and similarities between English and Uzbek. The linguistic and communicative functions of intonation are discussed, along with its application in language learning and translation.*

Бекманова Жамиля Абдулаевна	Роль инклюзивных групп в дошкольных образовательных организациях	**196**
Абдуллаева Малика Жалгасбаевна, Бекманова Жамиля Абдулаевна	Вовлечение семьи и сообщества в реализацию инклюзивного образования в Каракалпакстане	**199**
Abdurazakova Shohruza	Applying Real-Life Relevance Principle in Military Teaching: main Factors for Effective Language Acquisition	**201**
ILMIY AXBOROT		
Zaripova Ranojon Zaripovna	Uchinchi renessans davriga poydevor yaratishda imijelogiya ilmining ahamiyati	**205**
Hamroyev Saidjon Sanoyevich, Nurxonov Ibrat Jahon o‘g‘li	O‘zbekistonda ijtimoiy adolat va qonunchilik	**211**
Dehqonboyeva Madina Ablayor qizi	Ingliz va o‘zbek tillarida noverbal vositalar yordamida muloqot ta’sirini o‘tkazish xususiyati	**214**
Mustafaqulova Zarifa	Pedogogika sohasida qo‘llaniladigan o‘zlashma so‘zlarda ma’no kengayishi va ma’no torayishi hodisasi	**217**
Mamarasulov Umidjon	Badiiy tasvir va ifoda vositalarining lingvokulturologik aspektlari	**221**
Atajonova Maloxat Ilxamovna	Mayl va ohang uyg‘unligida kommunikativ maqsadining ifodasi	**225**
Nosirova Arofat Erkinovna	O‘zbek tilidagi paremiologik birliklarning ingliz va rus tillariga tarjima usullari	**228**
Erimbetova Shaxzada Abatbayevna	Anna Bronte «Agnes Grey» romanining lingvomadaniy tavofutlari	**232**
Aimuxammetova Aziza Maxsetbaevna	Numerativlarning lingvomadaniyatshunoslikda tadqiq etilishining nazariy asoslari	**234**
Otamuratova Sadoqat To‘lqinbek qizi	Shermuhammad Munisning “Qayg‘u” radifli g‘azali tahlili	**237**
Bulturova Raximaxon Isakovna	Nutq va uni o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar	**239**
Нишонов Илхомджон Дилмуродович	Стилистические приёмы и их роль в формировании художественного мира романа Уильяма Гибсона «Нейромант»	**242**
Джуманова Дильбар Рахимовна	Билингвизм в условиях языкового контактирования	**245**
Umarova Dildora Bakhtiyarovna	Utilization of Artificial Intelligence and Machine Learning in Uzbek Cinema	**249**
Kabulova Gulruxsor Ulugbekovna	Hyper-Hyponymic Standard of “Unisex Clothing” in English	**251**

Maqolaning nashr etilishi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot

Mazkur ilmiy jurnal **O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining tegishli qarorlari bilan tasdiqlangan** nashrlar qatoriga kiritilgan.

Jurnal Oliy attestatsiya komissiyasining **dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI** tarkibida mavjud bo‘lib, ushbu Ro‘yxatning **82–89-sahifalarida**
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI ixtisosligi rukni ostida qayd etilgan.

Izoh: Ushbu ma’lumot Jurnalning O‘zR OAK tomonidan rasman tan olinganligini tasdiqlaydi.